



_____ hokimligi
maktabgacha va maktab ta'limi
boshqarmasi

_____ maktabgacha va
maktab ta'limi bo'limi tasarrufidagi
___-umumiy o'rta ta'lim maktabi
tarbiya fani o'qutivchisi

_____ning
20__-20__-o'quv yiliga 5-sinflar uchun
I yarim yillik

DARS ISHLANMALARI

**20__-20__-o‘quv yili uchun tuzilgan tarbiya fanidan I yarim yillik
taqvimiy mavzu rejasi**

№	Mavzu nomi	Soat	Sana	Izoh
1.	O‘zbekiston - Vatanim manim! (Loyiha ishining baholash mezonini e‘lon qilish)	1		
2.	O‘zbekiston - Vatanim manim!	1		
3.	Tabiatni asrash - burchimiz	1		
4.	Tabiatni asrash - burchimiz	1		
5.	Ekologik istirohat bog‘i	1		
6.	Qonun o‘zi nima?	1		
7.	Qonun o‘zi nima?	1		
8.	Nazorat ishi-1	1		
9.	Yaxshi qonun va mas'uliyatli odamlar	1		
10.	Sinfdagi munosabatlar	1		
11.	Sinfdagi munosabatlar	1		
12.	Ziddiyatlar va yechimlar	1		
13.	Ziddiyatlar va yechimlar	1		
14.	O‘zaro yordam	1		
15.	Nazorat ishi-2	1		
16.	Jamoa bo‘lib ishlash	1		

Sana:				
Sinf:				

Mavzu: O‘zbekiston - Vatanim manim!(Loyiha ishining baholash mezonini e‘lon qilish)

Darsning maqsadi:

Ta’limiy: o‘quchilarga vatan, ijtimoiy hayot, qonunlar, fuqaroning huquq va majburiyatlari haqida yanada ko‘proq bilim berish, jamoa bilan birga ishlashni, boshqalarga yordam berish, bahs-munozaralarda o‘zini tutishga o‘rgatish.

Tarbiyaviy: his tuyg‘ularini, hayotdagi maqsadini yaxshiroq tushunib oladilar, orzulariga qanday erishishni o‘rgatish. Shu bilan birga, sog‘liqni saqlash qanchalik muhimligini, buning uchun nima qilish kerakligi haqida tushuncha berish.

Rivojlantiruvchi: mustaqil ishlash va fikrlash orqali bilim olishga, xotirani mustahkamlashga, tez fikrlashga o‘rgatish, fanga qiziqishini ortirish, O‘zbekistonning munosib farzandi bo‘lib yetishtirish.

Tarbiya kompetensiyalari:

mustaqil tafakkurga ega bo‘ladi, ma’suliyat va majburiyatiga amal qiladi, shaxs sifatida o‘zini anglaydi, mustaqil sog‘lom fikrga ega bo‘ladi, orasta kiyinadi va sog‘lom turmush tarziga amal qiladi.

Dars turi: yangi bilim beruvchi, bilimlarni mustahkamlovchi.

Dars uslubi: tushuntirish, suhbat, tezkor savol – javob, amaliy mustaqil ishlar bajarish, munozara, muammoli topshiriq, kichik guruhlarda ishlash, ko‘rgazmali va boshqalar.

Dars metodi: guruhlarda ishlash, “kim epchil-u, kim chaqqon”, “ko‘rsam tezroq o‘rganaman” shu kabi metodlar.

Dars jihozi: mavzuga oid rasm, ko‘rgazmalar va tarqatma materiallar, o‘quv qurollari, elektron materiallar.

Darsning borishi:

№	Bo‘limlar	Vaqt
1	Tashkiliy qism	3 daqiqa
2	O‘tgan mavzuni mustahkamlash	5 daqiqa
3	Yangi mavzu bayoni	15 daqiqa
4	Yangi mavzuni mustahkamlash	10 daqiqa
5	O‘quvchilarni rag‘batlantirish. Darsni yakunlash.	10 daqiqa
6	Uyga vazifa	2 daqiqa
Jami		45 daqiqa

I. Tashkiliy qism: a) Salomlashish. b) Davomatni aniqlash.

II. Uyga vazifani so‘rash: a) Savol – javob o‘tqazish. b) Topshiriqlarni tekshirish.

III. Yangi mavzu bayoni:

O‘zbekiston - go‘zal o‘lka. Oppoq qor-u o‘rmonlar bilan qoplangan baland tog‘lar, serquyosh vodiylar, daryo va ko‘llar, qadimiy va navqiron shaharlar, so‘lim qishloqlar, kundan kunga chiroy ochayotgan mahallalar bu go‘zallikka ko‘rk bag‘ishlaydi. Shonli tariximiz, qadim madaniyatimiz milliy boyligimizning o‘zagidir. O‘zbekistonning eng asosiy boyligi - unda yashayotgan insonlar. Bular bizning o‘zimiz, oilamiz, qarindoshlarimiz, qo‘shnilarimiz, do‘stlarimiz va tanishlarimizdir. Bizning yoshimiz, dunyoqarashimiz, millatimiz harxil, ona tilimiz, dinimiz boshqa-boshqa bolishi mumkin, balki bir-birimizga mutlaqo o‘xshamasmiz. Ammo barchamiz tinch-totuv, inoq yashaymiz, ezgulik yo‘lida hamjihat ishlaymiz, mana shu birlik eng ulug‘ qadriyatdir. O‘zbekiston bu - bizmiz!

-Assalomu alaykum, Umida! O‘qishning birinchi kuni qanday o‘tdi? Yangi sinfdoshlar kelibdi, ko‘rdingmi?

- Va alaykum assalom, Jasur! Birinchi kun juda yaxshi o‘tdi. Ha, sinfga yangi bolalar kelibdi. Sen ulardan birortasini taniysanmi?

- Ha, uchinchi qatorda o‘tirgan bo‘yi baland bola bilan tanishdim. Ismi Mahmud, ilgari boshqa maktabda a‘lo bahoga o‘qigan ekan.

Basketbolga ham qiziqar ekan. Sen-chi, egizak Hasan, Husanlar bilan tanishib oldingmi?

- Ha, lekin ikkovini rosa adashtiryapman. Bir-biriga quyib qo‘ygandek o‘xshasharkan, hatto portfellari ham bir xil.

Ehtimol, orangizda birortangiz yangi o'quv yilini yangi sinfda boshlayotgandirsiz. Bu sinfda birga o'qigan bolalar esa bir-birini juda sog'inishgandir. Keling, ular bilan suhbatlashib, bir-birimiz bilan yaxshiroq tanishib olamiz.

4-5 kishilik guruhlar ega bo'lining. Yaxshilab o'ylab, o'zingizni bir daqiqa ichida tanishtiring. Shu bir daqiqa ichida oilangiz, nimalarga qiziqishingiz, kelajakda kim bo'lmoqchi ekanligingizni aytib berishga harakat qiling.

Keyin guruhingizdagi boshqa bolalarning ham hikoyasini tinglang. Ularning orasida sizga eng yoqqan bir-ikkita hikoyani tanlab, butun sinfga gapirib bering.

- Salom Umida! Hasan bilan Husanning bir-biriga o'xshamaydigan jihatlarini bilib oldim! - hayajon bilan dedi Jasur ertasi kuni.

- Qanday ekan? - hayron bo'ldi Umida.

- Ikkovini bir-biridan zo'rg'a ajratib olasan, lekin fe'l-atvori, qiziqishlari butunlay boshqacha ekan. Husan og'ir-bosiq bola, kitob o'qishni yaxshi ko'radi, pianino chalishni ham biladi. Hasan bo'lsa, uning butunlay teskarisi, judayam harakatchan, haqiqiy sportchi, velosipedda shunaqangi tomoshalar ko'rsatadiki, qoyil qolasan. Menga ham o'rgatishga va'da berdi.

- Yo'g'-e? Zo'r-ku! Men esa ular bu darajada bir-biridan farq qiladi deb o'ylamagandim.

- Lekin har xil bo'lgani ham yaxshi ekan-da. Biri qila olmagan ishni boshqasi bajarib, bir-birini to'ldirib yurar ekan.

O'quv yilining boshida, Mustaqillik kuniga bag'ishlangan darsda ustozimiz bizga oilamiz va ajdodlarimiz haqida yozishimiz kerakligini, bu vazifa mustaqil ish bo'lishini, har bir o'quvchi bir varaq qog'ozga rasmlar, fotosuratlar bilan bezatilgan chiroyli hikoya tuzishi kerakligini tayinladi. Bu vazifa bolalarga juda yoqdi, chunki hamma ham o'zi va o'z oilasi haqida hikoya qilib berishga qiziqadi. Sinfda eng chiroyli va eng mazmunli hikoya yozish bo'yicha musobaqa boshlanib ketdi.

O'quvchilar yozgan hikoyalarini o'qib berib, fotosuratlarni namoyish qila boshlashdi. Ustozimiz esa ushbu hikoyalarni doskaga ilib chiqa boshladi. Sinf doskasi turfa hikoyalar bilan to'lib boraverdi. Bu varaqlarda bolalarning o'zlari, ota-onalari, ba'zilarida esa uzoqroq qarindoshlari, hatto qo'shnilari ham boredi. Oxirgi hikoya ham doskadan joy olgach, ustozimiz shunday dedi: Mana, har birimizning hikoyamiz sinfimizning umumiy tarixiga qo'shilib, uning bir bolagiga aylandi.

Har bir oilaning tarixi o'lkamiz, Vatanimiz tarixining bir qismidir. Hikoyalaringiz esa o'ziga xos va qiziqarli. Har biringizda o'zingizgagina xos fazilat, boshqangizda bo'lmagan

iste'dod bor. Oilalaringiz ham xilma-xil va betakror.

Insonlar ana shunday har xil bo'lgani uchun ba'zan bir-birini ushunmaydi, kelisha olmay qoladi. Agar ular kelishib, o'z iste'dodi, bilimini yagona maqsad yo'lida birlashtira olsalar, Vatan taraqqiyoti uchun buyuk xizmatlar qila oladilar, har birining hayoti yorqinroq, mazmunliroq bo'ladi. Rang-barang gullar ko'p bo'lgani sari atrof go'zallashgani kabi bir

mamlakatdagi turlicha dunyoqarashga ega insonlar kelishib, tinchtotuv yashasalar, har biri Vatan ravnaqi uchun o'z hissasini qo'shsa, bu mamlakat yanada boy, farovon bo'ladi, gurkirab rivojlanadi. Vatanimizning tinchligi esa buyuk ne'matdir.

1. Nima uchun ustoz birorta ham hikoyani eng yaxshi deb e'lon qilmadi? O'ylab ko'ring.

2. Nima deb o'ylaysiz, turli toifadagi odamlar ahil, tinch-totuv yashashlarining asosiy sababi nima?

Har bir inson o'ziga xos bo'lib, boshqalardan farq qiladi. Bizning ismimiz, qiyofamiz, fe'l-atvorimiz, qobiliyatlarimiz, iste'dodlarimiz, qiziqishlarimiz, yoqtiradigan narsalarimiz, hatto unchalik qo'limizdan kelmaydigan ishlarimiz ham o'zimizga xos. Masalan, kimdir juda yaxshi rasm chiza oladi, kimdir musiqada qobiliyatli boladi. Kimdir futbol o'ynashni yaxshi ko'rsa, yana kimdir kitob o'qisa, maza qiladi. Yoshimiz har xil, yashash joyimiz, ona tilimiz, dinimiz, millatimiz turlicha. Bizning yana boshqajuda ko'p jihatlarimiz har xil. Shuning uchun boshqalarda, ko'pchilikda bo'lmagan o'ziga xos jihatlarimizni bilib olishimiz kerak.

O'ziga xoslik barcha xususiyatlarimizni o'z ichiga oladi. U xuddi bizning kimligimizni, o'ziga xos jihatlarimizni ko'rsatib turadigan portretimizga o'xshaydi. Biroq buning boshqa tomoni ham bor - bizdagi har bir xususiyat atrofimizdagi juda ko'p odamlar bilan bir xil boladi. Masalan, "Men o'zbekistonlikman",



“Men 5-sinfda o'qiyman”, “Men rasm chiza olaman”, “Fazogir bo'lishni orzu qilaman” desak, xuddi shunday juda ko‘p insonlar bilan bir xil ekanligimiz ma’lum bo'ladi.

Mening mahallam

Umida, sinfga yangi qizlar ham kelibdimi?

Ha, kelibdi. Lobar degan qiz o'tgan yili matematika fani bo'yicha olimpiadada qatnashgan ekan. Jannat degan qiz esa ota-onasi bilan boshqa viloyatdan ko'chib kelibdi. Bizning mahallada turisharkan. Men uni darsdan keyin ariq yonidagi shiypunchimizga olib bormoqchiman. U yerga dugonalarim bilan doim borib turaman. Rosa salqin, zo‘r joy-da! Sen ham borasanmi? Bilmadim, ko'ramiz. Men uchun mahalladagi eng zo‘r joy -bog'chaning orqasida joylashgan futbol maydoni!

Bir-biringizga o'zingiz yashaydigan mahalla (tuman), u yerdagi o‘zingiz eng yaxshi ko‘rgan va doim boradigan joy haqida aytib bering. Uning xaritasini tuzing. O‘rtoqlaringiz bilan birgalikda shu xaritalar asosida mahallangizdagi ko'ngilochar joylarning umumiy xaritasini yarating.

Malik kichkina shaharchada yashaydi. O‘rtoqlari bilan uyi yaqinidagi ariqda cho'milishga ham borib turardi. Lekin bahorda kimdirariq yoqasini qurilish materiali qoldiqlari bilan to'ldirib tashlabdi. Beton bo'laklari, taxta, plastmassa qoldiqlari ko'pligidan suv yaqiniga borib bo'lmay qolibdi.

Birinchi kuni bolalar ariq yoniga borib, sochilib yotgan chiqindilardan o‘ta olmay, suvga achinib qarab qolishdi. So‘ng velosipedga o‘tirib, pastroqdan cho'milish uchun qulayroq joy topishdi. Malik o'rtoqlariga: “Uyimizga yaqin, har doim cho‘miladigan shu ariq atrofini o'zimiz tozalab qo‘ysak-chi?” - dedi. Lekin bu gap o'rtoqlariga yoqmadi. “Ta’tilda maza qilib hordiq chiqarish o'rniga jazirama issiqda chiqindi tashib yuramizmi?” - deyishdi. Ammo Malik ham bo'sh kelmadi, akasidan yordam so'radi. Akasi o'rtoqlari bilan kelib, qirg'oqni tozalaydigan, iloji bo'lsa, qirg'oqni plajga o'xshash so'lim joy qiladigan bo'lishdi.

Iyun oyida Malik akasining o'rtoqlari bilan birga rosa mehnat qilib, ariq yoqasini chiqindilardan tozaladi. Bolalar birgalashib tosh yo'lak terib chiqishdi. Malikning akalari Sobir va Mansur o'sha yerda yotgan taxtalardan ikkita o'rindiqli yasab berishdi. O'rindiqli biroz notekis bo'lsa ham, Malikning ko'ziga juda chiroyli ko'rindi.

Ish rosa qizigan paytda Malikning o'rtoqlari va mahalladagi boshqa bolalar ham kelib, ularga yordamlasha boshlashdi. O'rtoqlari ham, qo'shni bolalar ham Malikni mehnatkashligi, mahallasini obod qilishga astoydil harakat qilgani uchun hurmat qila boshlashdi.

Bolalarning qilgan astoydil harakatlari tufayli mo'jazzgina plaj paydo bo'ldi. Ular uchun bu joy go'zal va betakror maskanga aylanib qoldi.



-IV. Yangi mavzuni mustahkamlash

1. Nima uchun Malik boshqa joyda cho'milavermasdan, aynan chiqindilarga to'la joyni tozalashga ahd qildi?

2. O'ylab ko'ring, qirg'oqni tozalashni xohlamagan bolalar qanday sabab tufayli hasharga yordamga kelishdi?

V. Darsni yakunlash: o‘quvchilarni yutuq va kamchiliklarini muhokama qilish, rag‘batlantirish.

VI. Uyga vazifani e‘lon qilish: “Men yashaydigan tuman (mahalla)dagi so'lim va sevimli maskan” mavzusida taqdimot tayyorlang..

O‘IBDO‘: _____
(imzo) (sana)

Sana:				
Sinf:				

Mavzu: O‘zbekiston - Vatanim manim!

Darsning maqsadi:

Ta’limiy: o‘quchilarga vatan, ijtimoiy hayot, qonunlar, fuqaroning huquq va majburiyatlari haqida yanada ko‘proq bilim berish, jamoa bilan birga ishlashni, boshqalarga yordam berish, bahs-munozaralarda o‘zini tutishga o‘rgatish.

Tarbiyaviy: his tuyg‘ularini, hayotdagi maqsadini yaxshiroq tushunib oladilar, orzulariga qanday erishishni o‘rgatish. Shu bilan birga, sog‘liqni saqlash qanchalik muhimligini, buning uchun nima qilish kerakligi haqida tushuncha berish.

Rivojlantiruvchi: mustaqil ishlash va fikrlash orqali bilim olishga, xotirani mustahkamlashga, tez fikrlashga o‘rgatish, fanga qiziqishini ortirish, O‘zbekistonning munosib farzandi bo‘lib yetishtirish.

Tarbiya kompetensiyalari:

mustaqil tafakkurga ega bo‘ladi, ma’suliyat va majburiyatiga amal qiladi, shaxs sifatida o‘zini anglaydi, mustaqil sog‘lom fikrga ega bo‘ladi, orasta kiyinadi va sog‘lom turmush tarziga amal qiladi.

Dars turi: yangi bilim beruvchi, bilimlarni mustahkamlovchi.

Dars uslubi: tushuntirish, suhbat, tezkor savol – javob, amaliy mustaqil ishlar bajarish, munozara, muammoli topshiriq, kichik guruhlarda ishlash, ko‘rgazmali va boshqalar.

Dars metodi: guruhlarda ishlash, “kim epchil-u, kim chaqqon”, “ko‘rsam tezroq o‘rganaman” shu kabi metodlar.

Dars jihozi: mavzuga oid rasm, ko‘rgazmalar va tarqatma materiallar, o‘quv qurollari, elektron materiallar.

Darsning borishi:

№	Bo‘limlar	Vaqt
1	Tashkiliy qism	3 daqiqa
2	O‘tgan mavzuni mustahkamlash	5 daqiqa
3	Yangi mavzu bayoni	15 daqiqa
4	Yangi mavzuni mustahkamlash	10 daqiqa
5	O‘quvchilarni rag‘batlantirish. Darsni yakunlash.	10 daqiqa
6	Uyga vazifa	2 daqiqa
Jami		45 daqiqa

I. Tashkiliy qism: a) Salomlashish. b) Davomatni aniqlash.

II. Uyga vazifani so‘rash: a) Savol – javob o‘tqazish. b) Topshiriqlarni tekshirish.

III. Yangi mavzu bayoni:

Mening o‘lkam

O‘zbekiston xaritasiga qarang.

Siz O‘zbekiston Respublikasining qaysi viloyatlarida bo‘lgansiz?

Qaysi viloyatlarga hali bormagansiz? Qaysi viloyatlarga borishni istaysiz?

1. Guruh bo‘lib, o‘zingiz yashaydigan o‘lka haqida beshta gap tuzing.

2. Keyinbarcha guruhlar tuzgan gaplar asosida butun sinf nomidan hikoya yozing.

O‘zbekiston - ko‘p millatli mamlakat. Undagi har bir mintqa o‘ziga xos.

O‘zbekiston tarkibiga Qoraqalpog‘iston Respublikasi hamda 12 ta viloyat:

Toshkent, Farg‘ona, Andijon, Namangan, Sirdaryo, Jizzax, Samarqand, Navoiy,

Buxoro, Xorazm, Qashqadaryo, Surxondaryo va mamlakatimiz poytaxti

Toshkent kiradi.

1. Siz yashaydigan tuman (mahalla) qaysi viloyatda ekanini xaritada ko‘rsating.

2. Yashayotgan hududingizning g‘arb va sharq tomonida qaysi viloyatlar joylashganini aniqlang.

3. Faraz qiling, siz butun O‘zbekiston bo‘ylab sayohatga chiqmoqchisiz.

Agar siz:

1) Toshkentga; 2) Samarqandga; 3) Andijonga bormoqchi bolsangiz, qaysi viloyatlardan o‘tishingiz kerak bo‘ladi?



1. Quyidagi gaplar O'zbekistonning qaysi viloyatlari haqida aytilgan?

Bir viloyatga mashhur shoirning nomi berilgan. Yana biriga Markaziy Osiyodagi eng katta daryolardan birining nomi berilgan. Uchinchisi ipakchilik va Rishton sopollari bilan mashhur. To'rtinchisining markazi esa gullar shahri, deb ataladi.

2. Yuqorida berilgan ma'lumotlar kabi O'zbekistonning biror viloyati haqida topishmoq tuzing. So'ng tuzgan topishmog'ingizni sinfdoshlaringizga ayting, ular topishmoq javobini topishlari kerak.

3. O'zingiz yashayotgan hudud tarixi haqida nimalarni bilasiz?

Mening yurtim

Vodiylarni yayov kezkanda,
Bir ajib his bor edi manda.
Chappar urib gullagan bog'in,
O'par edim Vatan tuprog'in.
O'xshashi yo'q bu go'zal bo'ston,
Dostonlarda bitgan guliston -
I O'zbekiston deya atalur,
Uni sevib el tilga olur.

Hamid Olimjon

Qudratimiz manbayi

Qadimgi yunon afsonalarida
Antey ismli pahlavon haqida ertak
bor. Afsonaga ko'ra, u Livianing
podshohi, ummon ma'budi
Poseydon va yer ma'budasi
Geyaning o'g'li edi. Antey
yurtiga kim kirib kelsa, o'zi bilan
kurash tushishga majbur qilar va
bunday janglarda doim o'zi g'olib
bo'laverar ekan. Yillar davomida
eng zo'r pahlavonlar ham uni
yenga olmabdi. Bunda Anteyning
bir siri bor bolib: u charchab
qolsa, qo'lini yerga qo'yar va
shu zahoti yana kuchga tolib,

jangni davom ettirarkan. Bir kuni u bilan afsonaviy Gerakl kurash tushadigan bo'libdi.

Gerakl Anteyni bir necha bor yerga yiqitsa ham, Antey yana kuchga tolib, o'rnidan turib ketaveribdi.

Gerakl Anteyning yerdan kuch olayotganini sezib qolgach, uni dast ko'tarib olibdi. Ana shunda Anteyning kuchi qolmay, yengilibdi. Antey haqida aytilgan bunday voqealar afsona, xolos. Biroq bu afsona chuqur ma'noga ega. Har bir inson qalbida uni ezgu ishlarga, ulug' xizmatlarga undab turuvchi ilohiy kuch bo'lishi kerak. Bu kuch esa insondagi iymon-e'tiqod, g'urur, mardlik, o'z Vataniga bo'lgan muhabbatdir. Mana shu muqaddas tuyg'ular insonni ezgulik sari chorlaydi, yuksak marralarga eltadi. Vatanidan, o'zligidan, qadriyatlaridan uzoqlashgan kimsalar esa Antey kabi kuchdan qoladi va yengiladi.

1. Afsonadagi Antey o'z raqiblarini qanday qilib yenggan ekan?

2. "O'zligidan uzoqlashish", "o'zligini anglash" deganda nimani tushunasiz?

Sen bilan o'tgan har kun bayram - bazzm,

Sensiz bir on qolsam vahmim keladi.

Seni bilganlarga qilaman ta'zim,

Seni bilmaslarga rahmim keladi.

Muhammad Yusuf

Vatan - har bir inson uchun buyuk qadriyat. Har qanday vaziyatda u insonga muhim tayanchdir. Xalqi farovon yashayotgan yurt insonlarga shirinshakar mevalarini hadya qilayotgan barakali bog'ga o'xshaydi. Ammo bunday bog' gullab-yashnashi, mo'l hosil berishi uchun bog'bonlar ko'p mehnat qilib, uni parvarishlashi, asrab-avaylashi, sevishi lozim.

Yurt farovonligi xalqning baxt-saodatidir. Vatan gullab-yashnasa, insonlar tinch, osuda hayot kechiradi. Buning uchun esa har bir fuqaro Vatanini sevishi, o'zining halol mehnati bilan uni obod qilishi kerak.

Vatanni sevish, o'z xalqining an'analari, madaniyatini e'zozlash, yurt ravnaqi, xalq farovonligiga hissa qo'shish, uni himoya qilishga doim tayyor turish vatanparvarlik deb ataladi. Vatanparvarlik - Vatan



taqdirini o'z taqdiri bilan chambarchas bogliq deb bilish, yurtning tinch, farovon hayoti uchun javobgarlik hissini tuyishdir. Tarixchi, ma'rifatparvar jaded bobomiz Abdurauf Fitrat bu tuyg'uni shunday ifodalaydi: Yurt boshiga sinovlar, falokat kelsa, vatanparvarlik tuyg'usi yonib turgan mash'aladek namoyon bo'ladi. Chinakam vatanparvar inson Vatani uchun bor kuchini sarflaydi, kerak bo'lsa, jonini ham fido qiladi.



Parij – 2024 yozgi Olimpiya o'yinlarida yurtimiz tarixidagi eng yaxshi natijaga erishdik. O'zbekiston terma jamoasi sportchilari 8 ta oltin, 2 ta kumush va 3 ta bronza medalni qo'lga kiritishdi. Jamoamiz 206 mamlakat orasida medallar hisobida o'n uchinchi, Markaziy Osiyo va MDH (Mustaqil davlatlar hamdo'stligi) davlatlari orasida birinchi, Osiyoda esa to'rtinchi o'rinni egalladi.

Oddiy, tinch, farovon davrda vatanparvarlik unchalik sezilmasa ham, bu tuyg'u hech qachon ahamiyatini yo'qotmaydi. Qaysi yurtning fuqarolarida Vatan taqdiriga qayg'urish, yurt kelajagi uchun javobgarlik hissi yo'qolsa, uning qismati ayanchli bo'ladi.

Vatanparvarlik tuyg'usi ilmiy kashfiyotlar, ixtirolar, sportdagi g'alabalar kabi yutuqlardagina emas, balki bir qarashda oddiy ko'rinadigan, ammo nihoyatda muhim bo'lgan quyidagi kabi ishlarda ham namoyon boladi:

- halol mehnat qilish, yaxshi o'qish;
- har bir ishda halol bo'lish, qonunlarga rioya qilish;
- tili, dini va millatidan qat'i nazar, har bir vatandoshini hurmat qilish;
- yaqinlariga, atrofidagi insonlarga yordam berish;
- yurtning tabiatini, atrof-muhitini muhofaza qilish.

IV. Yangi mavzuni mustahkamlash

1. Vatanparvarlikning yana qanday ko'rinishlarini bilasiz?

2. Misollar keltiring. Nima uchun ularni ham vatanparvarlik deb hisoblaysiz?

V. Darsni yakunlash: o'quvchilarni yutuq va kamchiliklarini muhokama qilish, rag'batlantirish.

VI. Uyga vazifani e'lon qilish: Quyidagi yozuvlar yozilgan doiralarni chizing: Men / Mening oilam va do'stlarim / Mening mahallam (tumanim) / Mening viloyatim (respublikam) / Mening yurtim / Yer kurrasi.

O'IBDO': _____
(imzo) (sana)

Zokirjon.com. veb-sayiti orqali o‘zingiz uchun kerakli hujjatlarni yuklab olishingiz mumkin.

Zokirjon Admin bilan

90-530-68-66, 91-397-77-37 nomerga murojaat qilishingiz, shu nomerdagi telegram orqali bog‘lanishingiz nza456 yoki nza445 izlab telegramdan yozishingiz so‘raladi.

Telegramda murojaatingizga o‘z vaqtida javob beriladi

46 listdan iborat tarbiya fanidan 5-sinf I yarim yillik konspektini to‘loq holda olish uchun telegramdan yozing.




Telegram kanalimiz:

@Maktablar_uchun_hujjatlar

To‘lov uchun: UZCARD *880*9860230104973329*summa#

Plastik egasi Nabiye Zokirjon



DIQQAT!!!

Sizga bu **OMONAT** qilib beriladi.
To‘liq holda olganingizdan so‘ng:
Faqat o‘zingiz uchun foydalaning.
Hech kimga bermang hattoki eng yaqin insoningizga ham.
Internet orqali veb-saytlarga joylamang.
Kanal va gruppalariga tarqatmang.

**OMONATGA
HIYONAT QILMANG.**

Bizni hizmatdan foydalanib qulay imkoniyatga ega bo'ling!
Bizda maktablar uchun quydagi hujjatlar mavjud.

- 1. 1-11-Sinflar uchun kelajak soati ish reja va konspektlari**
- 2. 1-11-Sinflar uchun barcha fanlardan to'garak hujjatlari**
- 3. Sinf rahbar hujjatlari**
- 4. Metodbirlashma hujjatlari**
- 5. Ustama hujjatlari**
- 6. 1-11-Sinflar uchun barcha fanlardan konspektlar va tezislar**
- 7. 1-11-Sinflar uchun Ish rejalar (Taqqim mavzu rejalar)**
- 8. Maktab ish hujjatlari**
- 9. Direktor ish hujjatlari**
- 10. MMIBDO' ish hujjatlari**
- 11.O'IBDO' ish hujjatlari**
- 12.Psixolog hujjatlari**
- 13.Xotin-qizlar qo'mitasi ish hujjatlari**
- 14.Kutubxona mudirasi ish hujjatlari**
- 15.Besh tashabbus hujjatlari**
- 16. Ommalashtirish uchun dars ishlanmalar va ochiq dars ishlanmalar, taqdimotlar, slaydlar**